

## SHUKUR XOLMIRZAYEV IJODI: HAQIQAT VA INSON RUHIYATI TALQINI

**Boboqulova Dilbar Musurmon qizi,**

*Termiz davlat universiteti talabasi*

[boboqulovadilbar16@gmail.com](mailto:boboqulovadilbar16@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Inson ruhiyatining murakkab qatlamlarini badiiy haqiqat mezonini bilan o'lchash Shukur Xolmirzayev ijodiy laboratoriyasining bosh tamoyili hisoblanadi. Mazkur tadqiqotda adib asarlaridagi ijtimoiy determinizm va individual erkinlik o'rtasidagi ziddiyatlar psixologik realizm hamda qiyosiy-tipologik tahlil metodlari orqali yoritilgan. Tahlillar natijasida Xolmirzayev qahramonlarining ma'naviy evrilishlari va ularning jamiyat bilan murosasiz to'qnashuvlari inson omilining ustuvorligini ko'rsatuvchi asosiy badiiy vosita ekanligi aniqlandi. Tadqiqot yakunida adib merosining bugungi global madaniyat va milliy o'zlikni anglash jarayonidagi o'rni yangicha talqinlar bilan asoslab berildi.*

**Kalit so'zlar:** *Shukur Xolmirzayev, o'zbek adabiyoti, inson ruhiyati, badiiy realizm, jamiyat bilan munosabat, ichki kechinmalar, ijtimoiy muammolar.*

**Abstract.** *Measuring the complex layers of human psychology through the criteria of artistic truth is a fundamental principle of the creative laboratory of Shukur Xolmirzayev. This study examines the contradictions between social determinism and individual freedom in the writer's works using the methods of psychological realism and comparative-typological analysis. The analysis reveals that the spiritual transformations of Kholmiraev's characters and their uncompromising conflicts with society serve as the main artistic means reflecting the primacy of the human factor. The study concludes by substantiating the role of the writer's legacy in the context of contemporary global culture and the process of national identity formation through new interpretations.*

**Keywords:** *Shukur Kholmiraev, Uzbek literature, human psychology, artistic realism, relations with society, inner experiences, social issues.*

**Аннотация.** *Измерение сложных слоёв человеческой психики с позиции художественной истины является основным принципом творческой лаборатории Шукора Холмирзаева. В данном исследовании противоречия между социальным детерминизмом и индивидуальной свободой в произведениях писателя освещаются с помощью методов психологического реализма и сравнительно-типологического анализа. В результате анализа было установлено, что духовные трансформации героев Холмирзаева и их непримиримые столкновения с обществом являются основным художественным средством, отражающим приоритет человеческого фактора. В заключении исследования обоснована роль наследия писателя в процессах современной глобальной культуры и осознания национальной идентичности в новом интерпретационном ключе.*

**Ключевые слова:** *Шукор Холмирзаев, узбекская литература, человеческая психика, художественный реализм, взаимоотношения с обществом, внутренние переживания, социальные проблемы.*

**Kirish.** O'zbek badiiy tafakkuri tarixida Shukur Xolmirzayev shunchaki yozuvchi emas, balki inson ruhiyatining murosasiz tadqiqotchisi va realizm an'alarining yangi bosqichini yaratgan san'atkor sifatida alohida o'rin tutadi. Adib yaratgan "Boysun dunyosi" shunchaki geografik hudud chegarasidan chiqibgina qolmay, milliy o'zlik va umuminsoniy qadriyatlar to'qnashgan yirik ma'naviy poligonga aylandi. Mazkur tadqiqotning obyektini sifatida yozuvchining inson xarakterini ijtimoiy muhit bilan qat'iy ziddiyatda tasvirlash mahorati belgilab olindi.

Oxirgi o'n yilliklarda adabiyotshunoslikda Shukur Xolmirzayev ijodi ko'p bora tahlil qilingan bo'lsa-da, uning asarlaridagi "haqiqat va inson ruhiyati" dialektikasi ko'pincha

an'anaviy talqinlar soyasida qolib ketmoqda. Xususan, global o'zgarishlar davrida adib qahramonlaridagi ekzistensial inqirozlar va ijtimoiy determinizm masalalari yangicha metodologik prizma orqali o'rganilishga muhtoj. Shu sababli, tadqiqotning asosiy maqsadi — Xolmirzayev asarlarida haqiqat konsepsiyasining badiiy ifodasini va inson ruhiyati talqinidagi o'ziga xosliklarni zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan asoslab berishdan iborat. Ish davomida yozuvchining psixologik tahlil usullari uning sara hikoyalari va fundamental romanlari misolida dalillanib, adib merosining bugungi o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni va ilmiy ahamiyati ko'rsatib o'tiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Shukur Xolmirzayev ijodiy merosi o'zbek adabiyotshunosligida eng ko'p ilmiy munozaralarga sabab bo'lgan mavzulardan biridir. Buning asosiy sababi — adib insonning ijtimoiy niqoblarini olib tashlab, uning ichki dunyosidagi eng yashirin, ba'zan "shafqatsiz" haqiqatlarni boricha ko'rsatganidir. Uning qahramonlari an'anaviy adabiyotdagi tayyor "ijobiy" yoki "salbiy" qoliplarga sig'maydi, bu esa olimlar o'rtasida ularning ruhiy isyoni va ijtimoiy qiyofasini tahlil qilishda turlicha ilmiy qarashlarni keltirib chiqaradi.

Akademik Matyoqub Qo'shjonov [5. S-128] o'zining "O'zbekning o'zligi" tadqiqotida Xolmirzayev qahramonlarining fe'l-atvorini milliy xarakter prizmasi orqali tahlil qilib, yozuvchini hayot haqiqatiga sadoqati uchun "haqiqatning fidoyisi" deb e'tirof etadi. Xususan, "O'zbek xarakteri" hikoyasidagi Turob polvon timsolida o'zbek kishisining ham mardligi, ham murosasiz qaysarligi boricha tasvirlangani olim tomonidan yuqori baholangan. Bu fikrlarni davom ettirgan holda, akademik Umarali Normatov [6.] o'zining "Nasrimiz an'analari" asarida adibning hikoyanavislik mahoratini zamonaviy o'zbek nasrini yangi bosqichga olib chiqqan hodisa sifatida baholaydi. Olimning talqinicha, Xolmirzayev asarlaridagi, masalan, "Tabassum" hikoyasidagi insoniy xudbinlikning fosh etilishi jamiyatdagi soxta hamdardlik niqoblarini olib tashlashga xizmat qiladi.

Shuningdek, professor Qozoqboy Yo'ldoshev [7. S-548] o'zining "Yoniq so'z" kitobida adibning "Olabo'ji" romani va boshqa yirik asarlaridagi ijtimoiy ziddiyatlarni yangicha badiiy tahlil usullari orqali yoritadi. U yozuvchining qahramonlari, xususan, "Olabo'ji"dagi Oltoy obrazida nafaqat milliy, balki umuminsoniy ekzistensial iztiroblarni ham ifodalashini, uning jamiyat qoidalariga bo'ysunmasligi — shaxs erkinligi uchun kurash ekanligini isbotlab beradi.

Biroq, o'tkazilgan ushbu salmoqli tadqiqotlarga qaramay, Shukur Xolmirzayev [1.] asarlaridagi inson ruhiyati va jamiyat ziddiyati masalasi bugungi global o'zgarishlar davrida hali to'liq yaxlit holatda o'rganilmagan. Mavjud manbalarda asosan mahorat va uslub tahlil qilingan bo'lsa-da, inson taqdirining "niqobsiz haqiqati" yangicha metodik yondashuvlarga muhtoj. Aynan mana shu "bo'shliq" bizning tadqiqotimiz uchun asosiy yo'nalish bo'lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiya.** Mazkur tadqiqotning metodologik asosi sifatida tizimli-strukturaviy tahlil va qiyosiy adabiyotshunoslik tamoyillari belgilab olindi. Tadqiqotning empirik bazasini shakllantirishda Shukur Xolmirzayevning 2003–2005-yillarda “Sharq” nashriyoti tomonidan chop etilgan uch jildlik “Tanlangan asarlar” to‘plami asosiy manba sifatida xizmat qildi. Tanlab olish jarayonida adib realizmining o‘ziga xos xususiyatlari eng yorqin namoyon bo‘lgan “O‘zbek xarakteri”, “Tabassum”, “Ot egasi” hikoyalari hamda falsafiy-psixologik qamrovi bilan ajralib turuvchi “Olabo‘ji” romani tadqiqot ob‘ekti sifatida filtrlab olindi.

Adib qahramonlarining ichki dunyosidagi ziddiyatlarni, xususan, “shafqatsiz realizm”<sup>1</sup> unsurlarini aniqlashda Freydcha “Id” va “Ego” to‘qnashuvlariga yaqin bo‘lgan ruhiy tahlil usuli qo‘llanildi. Qiyosiy-tipologik tahlil jarayonida Xolmirzayev qahramonlari xarakteridagi “murosasizlik” va “g‘urur” elementlari an’anaviy o‘zbek nasridagi (masalan, Oybek yoki Abdulla Qahhor ijodi) tipologik namunalar bilan qiyoslandi. Matndagi ramzlar (masalan, “olabo‘ji” yoki “tog‘” obrazlari) va ularning ostki ma’nolari adib yashagan ijtimoiy-siyosiy davr kontekstida qayta talqin qilindi.

Natijalarning ob‘ektivligini ta’minlash uchun tahlil jarayonida akademik M. Qo‘shjonovning milliy xarakterga oid nazariyalari hamda professor Q. Yo‘ldoshevning badiiy tahlil metodlariga tayanildi. Ma’lumotlarni tahlil qilishda sifatli (qualitative) yondashuv asos qilib olindi, bu esa badiiy matnning ichki mantiqiy qonuniyatlarini to‘laqonli ochish imkonini berdi.

**Tahlil va natijalar muhokamasi.** Shukur Xolmirzayev badiiy olami inson ruhiyatini barcha murakkabliklari va ijtimoiy qobiqlarsiz aks ettiruvchi o‘ziga xos psixologik laboratoriya vazifasini o‘taydi. Tadqiqot ob‘ekti sifatida olingan matnlarning tizimli tahlili shuni ko‘rsatadiki, adib qahramonlari shunchaki ijtimoiy tipaj emas, balki chuqur ekzistensial asosga ega shaxslardir. Adib realizmining eng xarakterli jihati — qahramonlarning ekstremal vaziyatlardagi ruhiy evrilishlari bo‘lib, ushbu jarayonlar quyidagi qiyosiy tahlil jadvalida o‘z aksini topgan:

Tahlil ob‘ekti (Asar)	Markaziy qahramon	Aniqlangan ziddiyat	Tadqiqot natijasi (Topilma)
“O‘zbek xarakteri”	Turob polvon	G‘urur va moddiy manfaat to‘qnashuvi.	Milliy xarakterdagi murosasizlik va ma’naviy butunlik g‘oyasi isbotlandi.
“Tabassum”	Qishloq kishilari	Haqiqiy insoniy fojia va soxta ijtimoiy niqob.	Inson psixologiyasidagi yashirin xudbinlik (Id) qatlamlari badiiy fosh etildi.
“Olabo‘ji”	Oltoy	Individual erkinlik va jamiyat belgilagan sun’iy qoliplar.	Jamiyatdan uzilish - shaxsiyatning ma’naviy va intellektual g‘alabasi sifatida aniqlandi.
“Ot egasi”	Berdi	Sadoqat, ishonch va insoniy xiyonat ziddiyati.	Hayvon va inson munosabatlari orqali

<sup>1</sup> Shafqatsiz realizm: Insonni yoki voqelikni bezamasdan, uning eng og‘riqli, xunuk va yashirin tomonlarini ham boricha ko‘rsatiimtersh uslubi.

		sadoqatning asosi yoritildi.	ekzistensial
--	--	---------------------------------	--------------

Shunday qilib, o'tkazilgan tahlillar natijasida aniqlandiki, Xolmirzayev qahramonlari kutilmagan ruhiy bosim ostida o'zlarining ijtimoiy "qobiq"larini tashlaydi. Bu jarayon adib uslubida "shafqatsiz realizm"ning eng yuksak nuqtasi bo'lib, o'quvchini inson tabiatining murakkab va ba'zan yashirin haqiqatlari bilan yuzlashtiradi. Shukur Xolmirzayevning o'zbek adabiyotidagi o'рни va badiiy mahoratini zamonaviy metodologiyalar asosida qayta baholash, milliy adabiyotshunoslik uchun yangi ufqlar ochadi. Ushbu ilmiy topilmalarni interpretatsiya\*<sup>2</sup> qilish jarayonida adib realizmining akademik Matyoqub Qo'shjonov ta'riflagan "haqiqat fidoyiligi" konsepsiyasi bilan hamohangligi, biroq undan ham chuqurroq psixologik qatlamlarga egaligi ayon bo'ldi.

Xususan, jadvalda keltirilgan "Olabo'ji" romani tahlili professor Q. Yo'ldoshevning adib qahramonlari haqidagi qarashlarini yangi dalillar bilan boyitadi. Oltoy obrazining jamiyatdan qochishi - bu shunchaki qishloq hayotidan voz kechish emas, balki shaxsning o'z ichki "Men"ini (Ego) ijtimoiy soxtaliklardan tozalashga bo'lgan urinishidir. Ta'kidlash joizki, Xolmirzayevning "shafqatsiz realizmi" o'zbek nasrida mutlaqo yangi psixologik maktabni shakllantirdi. Avvalgi adabiyotshunoslik an'alarida ko'proq adibning tili va tasviriy vositalari o'rganilgan bo'lsa, mazkur tadqiqot insonning instinktiv xohishlari va ijtimoiy nazorat o'rtasidagi murosasizlikning badiiy yechimlarini ilmiy asosladi. Bu esa, o'z navbatida, Shukur Xolmirzayev merosini jahon adabiyotidagi yirik psixologik oqimlar (Kamyu, Xeminguey) bilan qiyosiy o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

**Xulosa va takliflar.** Shukur Xolmirzayev shunday buyuk adibki, uning ijodiy merosi o'zbek nasrida inson fitratini barcha murakkabliklari va ijtimoiy qobiqlarsiz aks ettiruvchi o'ziga xos ma'naviy fenomen bo'lib qolaveradi. Tadqiqotimiz davomida adibning "shafqatsiz realizm" tamoyillari asosida yaratilgan asarlari tahlil qilinarkan, yozuvchi qahramonlari shunchaki adabiy personajlar emas, balki o'zining ichki erkinligi va ma'naviy butunligi uchun har qanday ijtimoiy bosimlarga qarshi tura oladigan ekzistensial shaxslar<sup>3</sup> ekanligi o'z isbotini topdi.

Olingan natijalar shuni tasdiqlaydiki, Xolmirzayev konfliktlari faqatgina tashqi muhit bilan cheklanmaydi, balki insonning ichki olamidagi "Id" (yashirin instinktlar) va "Ego" (ijtimoiy nazorat)<sup>4</sup> o'rtasidagi murosasizlikka tayanadi. Bu esa adib ijodini dunyo adabiyoti durdonalari bilan bir qatorga qo'yishga to'liq asos bo'la oladi. Shakllantirilgan tahliliy jadvalimiz esa qahramonlarning ekstremal vaziyatlardagi ruhiy qiyofasini ochib berib, o'zbek kitobxonida inson tabiatiga nisbatan xolis va teran qarashni shakllantirishga xizmat qiladi.

<sup>2</sup> Interpretatsiya: Matnни yoki qahramon harakatini shunchaki o'qish emas, balki uning tagida yotgan yashirin ma'noni ilmiy asosda sharhlash.

<sup>3</sup> Ekzistensial shaxs: Insonning jamiyat qoliplaridan tashqari, o'zining erkin tanlovi va ichki "Men"i bilan yashaydigan, hayotning ma'nosini shaxsan o'zi belgilaydigan qahramon (Masalan, Oltoy obrazi).

<sup>4</sup> Id va Ego (Freydcha talqin): Id — insonning ichidagi jilovlanmagan instinktlari, xohishlari; Ego — jamiyat tartiblari va mantiq asosida shakllangan nazorat qiluvchi qatlam.

Shu munosabat bilan, tadqiqot natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi amaliy takliflarni ilgari suramiz:

➤ Ilmiy hamkorlikni kengaytirish: Shukur Xolmirzayev asarlarini jahon adabiyoti vakillari (Kamyu, Sartr, Xeminguey) ijodi bilan qiyosiy-tipologik yoʻnalishda oʻrganishni davom ettirish lozim. Bu oʻzbek adabiyotshunosligining xalqaro miqyosdagi nufuzini yanada oshiradi.

➤ Taʼlim jarayoniga tadbiiq etish: Adibning oʻziga xos psixologik tahlil mahoratini filologiya fakultetlari talabalari uchun maxsus kurslar yoki seminar mashgʻulotlari sifatida kiritish maqsadga muvofiqdir.

➤ Dramaturgiya va publitsistikani oʻrganish: Kelgusida adibning nafaqat nasriy, balki uning kam oʻrganilgan dramatik asarlari va oʻtkir publitsistik merosini ham alohida tadqiqot obʼekti sifatida olish lozim.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Shukur Xolmirzayev yaratgan "Boysun olami" milliy xarakterimizning eng samimiy va murossasiz qirralarini oʻzida jamlagan. Ushbu boy ma'naviy xazinani yangicha talqinlar bilan boyitish nafaqat bugungi, balki kelajak adabiyotshunosligining ham eng ustuvor vazifalaridan biri boʻlib qolishi shart.

#### Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Xolmirzayev, Sh. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. – Toshkent: Sharq, 2003–2005.
2. Xolmirzayev, Sh. Olaboʻji. – Toshkent: Sharq, 1992. – 384 b.
3. Xolmirzayev, Sh. Dinosaur. – Toshkent: Sharq, 1996. – 320 b.
4. Xolmirzayev, Sh. Yur togʻlarga ketamiz – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 1986.
5. Qoʻshjonov, M. Shukur Xolmirzayev xarakterlar yaratish mahorati. – Toshkent: Adabiyot va sanʼat, 1986.
6. Normatov, U. Qodiriy bogʻi. – Toshkent: Maʼnaviyat, 1996. (Shukur Xolmirzayev uslubidagi realizm tahlili uchun).
7. Yoʻldoshev, Q. Yoniq soʻz: Badiiy tahlil tamoyillari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006. – 548 b.
8. Karimov, B. Ruhiyat alifbosi: Adabiy-tanqidiy maqolalar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi NMIU, 2014.
9. Rasulov, A. Badiiy tahlil mezonlari va mahorat. – Toshkent: Fan, 2008.
10. Sultonov, I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 2005.
11. Sharofiddinov, O. Dovonlar oshib: Maqolalar, adabiy oʻylar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom, 1977.
12. Yoʻldoshev, Q. Yoniq soʻz – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2001.
13. Jabborov, N. Adabiyot va milliy ma'naviyat. – Toshkent: Ma'naviyat, 2015.
14. Abdusamatov, H. Badiiy mahorat sirlari. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1978. – 210 b.
15. Freud, S. The Ego and the Id. – London: Hogarth Press, 1923.
16. Camus, A. The Myth of Sisyphus and Other Essays. – New York: Vintage, 1991.
17. Jung, C. G. Modern Man in Search of a Soul. – London: Routledge, 1933. (Inson ruhiyati va arxi-tiplar tahlili uchun).
18. Heidegger, M. Being and Time. – Oxford: Blackwell, 1962. (Ekzistensial tahlil metodologiyasi uchun).
19. Karimov, B. Shukur Xolmirzayevning badiiy olami // Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. – Toshkent, 2010. – №4. – B. 12-18.
20. Ziyoz.com kutubxonasi – Shukur Xolmirzayev haqida maqolalar va asarlar matni (Elektron resurs).